Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	
Oliy ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirish orqali verbal zo'ravonlikni bartaraf etish texnologiyalari	817
Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi	
Tashvishli buzilishlarni korrektsiya qilishda kognitiv-bixevioristik terapiya usullari	821
Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Xamroyeva Zarina Shaxriyevovna	



Rahbar va pedagogik muhit: nazariy va amaliy asoslar	824
<i>Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Gaziyeva Nigora Shamsiddinova</i>	
O'smirlik – deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida	827
<i>Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi</i>	
Цифровые образовательные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	830
<i>Ескараева Г. Б.</i>	
Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	833
<i>Muxiddinova Nilufar Baxodirovna</i>	
Talabalar mediakompetentligini baholash usullari va mezonlari	839
<i>Alimov Zokir Chori o'g'li</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish va o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish	844
<i>Ergasheva Malohat Tursunovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash mezonlari	847
<i>Hamzayeva Nigina Azamjonovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda fanlararo bog'liqlik	852
<i>Musayeva Dilfuza Abdurahmonova</i>	
Ta'limda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy tahlil qilish	857
<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmadagi talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	



Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoza Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	
Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik qarashlar	1041
Xamidov Amin Abdulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish	1044
Abduvahob Eshmurodov	
Talabalarda tibbiy bilimlarini rivojlantirishda "Svetofo" metodining ahamiyati va xususiyatlari	1047
Akbarova Dono Rahmatdjonovna	
Yosh davrlariga qarab harakat koordinatsiyasining rivojlanish bosqichlari va badiiy gimnastikada ritmning ahamiyati.....	1051
Beknazarova Lobar Shokir qizi	
Mashq va topshiriqlar tizimi orqali talabalarning komparativ-kreativ fikrlashini shakllantirish.....	1055
Mohinbonu Usmonova	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosidagi kompetensiya metodlarini takomillashtirish	1058
Hamdamova Manzura Zuvaydillayevna	
Akademik ko'nikma va uning tipologik tasnifi	1062
N. J. Isakulova	
Формирование коммуникативной компетентности детей старшего дошкольного возраста в процессе взаимодействия со сверстниками.....	1068
Намазбаева Лола Закировна, Умерова Зарема Ремзиевна	
Formativ baholashning nazariy asoslari va fizika fanida qo'llash imkoniyatlari	1073
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yinlardan foydalanish	1078
Ibragimov Shuhratbek	
Interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish yo'llari.....	1082
Mutallibjonov Ma'rufjon	
O'tkir Rahmat ijodida qo'llanilgan kognitiv metaforalar.....	1088
Maxammatova Feruza Olimovna	
Tarbiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish	1092
Qurbaniyozova Mardona Fayzulla qizi	

AKADEMIK KO'NIKMA VA UNING TIPOLOGIK TASNIFI

N. J. Isakulova

O'zDJTU, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Akademik ko'nikmaning mazmun-mohiyati hamda uning tipologik tasnifi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Akademik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, refleksiv hamda jamoada ishlash (teamworking) akademik ko'nikmalarining nazariy asoslari yoritiladi. Shuningdek, ushbu ko'nikmalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning o'zaro bog'liqligi hamda samarali akademik faoliyatni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: akademik ko'nikma, akademik ko'nikmaning mazmun-mohiyati, tipologik tasnif, kognitiv akademik ko'nikma, kommunikativ akademik ko'nikma, tashkiliy akademik ko'nikma, refleksiv akademik ko'nikma, jamoada ishlash (teamworking) akademik ko'nikmasi.

Abstract: The content and essence of academic skills and their typological classification are analyzed. The theoretical foundations of cognitive, communicative, organizational, reflective, and teamworking academic skills that ensure effective academic performance are highlighted. The role of these skills in the educational process, their interrelation, and their importance in forming effective academic activity are also substantiated.

Key words: academic skills, essence of academic skills, typological classification, cognitive academic skills, communicative academic skills, organizational academic skills, reflective academic skills, teamworking academic skills.

Аннотация: Рассматриваются содержание и сущность академических навыков, а также их типологическая классификация. Освещаются теоретические основы когнитивных, коммуникативных, организационных, рефлексивных и академических навыков командной работы (teamworking), обеспечивающих эффективность академической деятельности. Также обосновывается роль данных навыков в образовательном процессе, их взаимосвязь и значение в формировании эффективной академической деятельности.

Ключевые слова: академический навык, сущность академического навыка, типологическая классификация, когнитивные академические навыки, коммуникативные академические навыки, организационные академические навыки, рефлексивные академические навыки, академические навыки командной работы (teamworking).

KIRISH

Globalashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida oliy ta'lim tizimida talabalardan nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ilmiy axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash hamda akademik muhitda samarali muloqot qilish kabi akademik ko'nikmalarga ega bo'lish talab etilmoqda. Shu sababli akademik ko'nikmalarni tizimli o'rganish va ularning tarkibiy tuzilishini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Oliy ta'limda kredit-modul tizimining joriy etilishi talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati ulushini oshirdi. Bu esa o'quv jarayonida akademik yozuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy manbalar bilan ishlash, referat va ilmiy maqola tayyorlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi. Akademik ko'nikmalarni tipologik jihatdan tasniflash ularni samarali shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Akademik ko'nikmalarni tipologik tasniflash talabalarning o'qish, yozish, tahlil qilish, muloqot qilish hamda tadqiqot olib borish faoliyatini integrativ tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar turli xarakter va ahamiyatga ega. Bilimlar – bu axborotni nazariy jihatdan anglash bo'lsa, ko'nikmalar va qobiliyatlar bilimlarning real hayotdagi amaliy qo'llanilishini ifodalaydi. Ko'nikmalarni egallash tajriba va tizimli mashq orqali amalga oshadi, qobiliyatlar esa inson tabiatida mujassam bo'lib, muayyan faoliyat turlari yoki malakalarga bo'lgan kuchli moyillikda namoyon bo'ladi^[8] (1-jadval).

1-jadval: **Bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarning farqlari**

Farqlar	Bilim	Ko'nikma	Qobiliyat
Ta'rif	bu predmetni nazariy yoki amaliy jihatdan tushunishdir	bu ta'lim yoki tajriba natijasida rivojlanadigan xatti-harakatlardir	bu biror ishni bajarishga bo'lgan layoqat sifatidir
Egallanishi	ta'lim olish yoki tajriba orqali egallanadi	mashq qilish yoki o'zlashtirish natijasida shakllangan xulq-atvordir	tug'ma yoki tabiatan mavjud bo'ladi
Misol	pirog pishirishni bilish	pishirish jarayonidagi mahorat yoki tayyorlash amaliyoti	tafsilotlarga e'tibor berish kabi tabiiy qobiliyatga ega bo'lish
Rivojlanishi	tajriba ortishi bilan ko'payadi	muntazam mashq orqali rivojlantiriladi	ma'lum darajagacha takomillashtirilishi mumkin

Ko'nikmalar – bu ta'lim yoki tajriba natijasida rivojlanadigan malakalardir. Ular bilimlarni aniq va amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatiga taalluqlidir. Ko'nikmalarni amaliyotsiz rivojlantirib bo'lmaydi. Masalan, shaxsning ijtimoiy ko'nikmalari odamlar bilan o'zaro muloqot jarayonida – kuzatish, tinglash va gapirish orqali shakllanadi. Ko'nikmalarni egallash ko'pincha sinov va xatolar usuli orqali amalga oshadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Akademik ko'nikmalar masalasi zamonaviy pedagogika va oliy ta'lim metodikasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilmoqda. Xususan, Mirzaxadjayeva Shahzoda va Raxmatullayev Qudrat Shuxrat o'g'lining tadqiqotlarida akademik ko'nikmalar talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Mualliflar akademik ko'nikmalarni ilmiy axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, akademik yozuv hamda tadqiqot faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq kompleks malakalar tizimi sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish hamda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Akademik ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari Velikaya E. V. tomonidan ham keng yoritilgan. Olimaning ilmiy ishlarida talabalarda akademik ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif akademik o'qish, akademik yozuv, ilmiy axborotni tahlil qilish va mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalarini talabani akademik muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillar qatoriga kiritadi. Shuningdek, tadqiqotda akademik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida kommunikativ va kognitiv faoliyatning o'zaro uyg'unligi alohida ta'kidlanadi.

Akademik ko'nikmalar tushunchasining pedagogik mazmunini aniqlashda rus pedagogika maktabi olimlari ham muhim hissa qo'shgan. Jumladan, Demidova Olga Mixaylovna va Pozdeeva Svetlana Ivanovna ilmiy tadqiqotlarida "academic skills" atamasining pedagogik talqini, uning mazmuniy chegaralari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Mualliflarning ta'kidlashicha, akademik ko'nikmalar ilmiy matnlar bilan ishlash, axborotni tizimlashtirish, mantiqiy fikrlash va ilmiy muloqot olib borish jarayonida shakllanadigan kompleks malakalar tizimini ifodalaydi.

Talabalarda akademik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi Gordenko N. V. tadqiqotlarida ham keng o'rganilgan. Muallif oliy ta'lim muassasalarida akademik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini o'quv faoliyati, tadqiqot faoliyati hamda mustaqil ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, akademik ko'nikmalar talabani o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, ilmiy manbalar bilan ishlashi hamda mustaqil ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan akademik ko'nikmalarni tushuntirishda Xutorskoy A. V. ilmiy qarashlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Olim ta'lim jarayonida kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining metodologik asoslarini yoritib, akademik ko'nikmalarni shaxsning ta'limiy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholaydi. Uning fikricha, akademik ko'nikmalarni shakllantirish talabalarda funksional savodxonlikni rivojlantirish, ilmiy fikrlashni shakllantirish hamda mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kuzatish metodi talabalarning o'quv jarayonidagi real faoliyatini tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu metod orqali dars jarayonida fikr bildirish, ilmiy munozarada ishtirok etish, savol berish, mustaqil ishlash kabi akademik ko'nikmalar namoyon bo'lishi o'rganiladi. Kuzatishning afzalligi – u talabani tabiiy muhitdagi faoliyatini o'rganish imkonini beradi, biroq natijalar tadqiqotchining subyektiv bahosiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Testlar akademik ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlashda eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir. Ushbu metod orqali talabalarning o'qish, yozish, axborotni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va ilmiy matn bilan ishlash kabi akademik ko'nikmalari baholanadi. Testlarning afzalligi shundaki, ular qisqa vaqt ichida

ko'p sonli respondentlarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi. Biroq testlar ko'pincha akademik faoliyatning ijodiy va analitik jihatlarini to'liq aks ettira olmaydi.

Anketa-so'rovnoma metodi talabalarning akademik faoliyatga bo'lgan munosabati, o'zini o'zi baholashi, o'qish strategiyalari va o'rganish usullari haqida ma'lumot to'plash imkonini beradi. Anketa-so'rovnoma yordamida akademik ko'nikmalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ham aniqlanadi. Biroq bu metod subyektiv fikrlarga asoslanganligi sababli natijalarni boshqa metodlar bilan solishtirish zarur.

Akademik ko'nikma – bu ta'lim oluvchining bilimlarni egallash, qayta ishlash, qo'llash va mustaqil ravishda rivojlantirishga xizmat qiluvchi intellektual, kognitiv, kommunikativ va metakognitiv faoliyatlar majmuidir. U shaxsning o'quv faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlaydi hamda uzluksiz ta'lim uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda akademik ko'nikma:

- o'rganishni o'rganish (learning to learn);
- o'quv kompetensiyasi;
- ta'limiy strategiyalar majmui sifatida ham talqin qilinadi.

“Academic skills” tushunchasi G'arb ilm-fanida 1974-yilda paydo bo'lgan [2; 267-b.], Rossiya ilm-faniga esa ushbu tushuncha taxminan 2003-yildan boshlab, Rossiyaning Bolonya jarayoniga qo'shilishidan so'ng kirib kela boshlagan. Bu davrda Rossiya ilmiy va pedagogik jamoatchiligi nafaqat o'zlari uchun yangi bo'lgan ushbu atamalarning mazmun-mohiyatini anglashga, balki ularni Rossiya oliy ta'limi kontekstida to'g'ri qo'llashga ham intilgan. Mazkur jarayon ayniqsa magistratura ta'limi uchun o'quv dasturlari va fanlarni ishlab chiqish jarayonida jadal kechgan, chunki uning professor-o'qituvchilar tarkibiga nisbatan yuqoriroq talablar qo'yilgan edi. Gap academic skills tushunchasini bevosita Rossiya ta'lim muhitiga ko'chirib o'tkazish haqida emas, balki ushbu tushunchaning dastlabki (“asl”) kontekstiga zid kelmaydigan, shu bilan birga Rossiya oliy ta'lim muassasalarining ta'limiy amaliyoti xususiyatlari va an'analari hisobga oladigan jihatlarini ajratib ko'rsatish haqida borgan. Rus tilidagi metodik, pedagogik va psixologik adabiyotlarda “akademik ko'nikmalar”, “akademik malakalar”, “akademik kompetensiyalar” kabi atamalar uchraydi. “Academic skills” atamasining talqinlaridagi bunday xilma-xillik va ularning turlicha aniqlashtirilishi ushbu terminni Rossiya pedagogika fanida hamda bakalavr va magistrnlarni kasbiy tayyorlash amaliyotida o'zlashtirish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda [6].

Akademik ko'nikmalar oliy ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli tahsil olish va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zarur bo'lgan malaka va kompetensiyalar majmuasini anglatadi. Ushbu ko'nikmalarga tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, akademik yozuv, manbalar bilan ishlash, vaqtni boshqarish hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatlari kiradi. Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish har bir talaba va tadqiqotchining ta'limiy yo'lida fundamental ahamiyatga ega bo'lib, aynan shu kompetensiyalar o'quv dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish bilan bir qatorda ilmiy bilimlar rivojiga munosib hissa qo'shish imkonini beradi [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim standartlari o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi akademik ko'nikmalarning komponentlarini ajratib ko'rsatadi:

- tanqidiy va analitik fikrlash – axborotni baholash, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati;
- akademik yozuv – muayyan fan talablariga mos keladigan ilmiy matnlarni yaratish malakasi;
- axborot savodxonligi – tegishli axborot manbalarini izlash, tanlash va tahlil qilish ko'nikmalari;
- tadqiqotchilik ko'nikmalari – ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati;
- kommunikativ ko'nikmalar – o'z ishining natijalarini samarali taqdim eta olish malakasi;
- tashkiliy ko'nikmalar – ta'limiy maqsadlarga erishish uchun vaqt va resurslarni rejalashtirish [7] (1-rasm).

Talabalarga academic skills (akademik ko'nikmalar) nazariyani o'rganishga emas, balki bevosita o'qish jarayonining amaliyotiga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

- fan (mavzu) bilan tanishtirish;
- ma'ruzani tinglash va konspekt qilish;
- tadqiqot faoliyati;
- munozara (diskussiya) o'tkazish;
- akademik yozma ish bajarish;
- taqdimot qilish [3].



1-rasm: Akademik ko'nikmalarning komponentlari

Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish kursi ta'lim oluvchilarga ham ta'lim muassasasida o'qish jarayonida, ham keyingi oliy kasbiy ta'limni olishda yanada muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Turli axborot manbalaridan foydalanish, o'qilgan matnning asosiy g'oyasini tushunish, yozma ishlarning turli shakllarini bajarish, taqdimotlar tayyorlash, o'z nuqtayi nazarini dalillar asosida isbotlay olish kabi ko'nikmalar keyingi kasbiy ta'lim uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ta'lim jarayonida umumta'limiy ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, maqsad qo'yish, vaqtni rejalashtirish, o'z ishini baholash va o'zaro baholash ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Har bir dars boshida dars yakuniga qadar erishilishi lozim bo'lgan maqsad va amaliy vazifalar belgilanadi, bu esa ta'lim oluvchilarga belgilangan maqsad sari qanchalik ilgariilaganini baholash imkonini beradi.

Akademik ko'nikmalar shaxsning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish, axborotni izlash, qayta ishlash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Quyidagi asosiy akademik ko'nikmalar mavjud:

- tahliliy fikrlash – muammolarni aniqlash va ularni ilmiy usullar yordamida hal qilish;
- ilmiy tadqiqot olib borish – ishonchli manbalarni o'rganish, eksperimentlar o'tkazish va natijalarni baholash;
- yozma va og'zaki muloqot ko'nikmalari – ilmiy maqolalar yozish, hisobotlar tayyorlash va omma oldida chiqish qilish;
- axborot bilan ishlash – ishonchli manbalarni tanlash, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni tushunarli tarzda yetkazish ^[1].

Akademik ko'nikmalar nafaqat ta'lim jarayonida, balki turli kasbiy sohalarda ham katta ahamiyatga ega. Ular mutaxassisning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantiradi hamda ilmiy yangiliklarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Akademik ko'nikmalar ikki guruhga bo'linadi:

- umumiy – turli fanlarni o'rganish jarayonida egallanadi (o'qish, yozish va boshqalar);
- maxsus (tor ixtisoslashgan) – faqat muayyan fan doirasida o'qish jarayonida shakllanadi (ustun usulida hisoblash, kimyoviy moddalarning valentligini aniqlash va hokazo).

Shunday qilib, o'rganilgan rus va ingliz tillaridagi ilmiy adabiyot manbalarida keltirilgan “akademik”, “ko'nikmalar”, “malakalar”, “kompetensiyalar”, “kompetentlik” atamalarini ma'nolarining tahliliga asoslanib, academic skills tushunchasini “akademik ko'nikmalar”, “akademik malakalar”, “akademik kompetensiyalar” va “akademik kompetentlik” sifatida talqin qilish mumkin, degan xulosaga kelish mumkin ^[6].


Akademik ko'nikmalar – bu nutqiy akademik malakalarning aspektual, avtomatlashtirilgan tarkibiy qismlari bo'lib, masalan, akademik o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish malakalarini o'z ichiga oladi. O'z navbatida, akademik malakalar – bu ilmiy uslub yoki o'quv-ilmiy subuslub vositalari orqali fikrni og'zaki va yozma shaklda idrok etish hamda ifodalash qobiliyatidir ^[6].



Akademik kompetensiyalar esa ta'lim oluvchining ta'limiy faolligi va mustaqilligini ta'minlaydigan, o'quv, ta'limiy hamda shaxsiy vazifalarga erishishga xizmat qiluvchi malakalar majmuasidir^[4].

Zamonaviy jamiyatda ta'lim sohasida kompetensiyaviy hamda tizimli-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar yetakchi hisoblanishini ta'kidlash zarur. Bu shuni anglatadiki, ta'lim muassasasi ta'lim oluvchisi va talaba nafaqat tavsifiy xarakterdagi ma'lumot va bilimlarni, balki protsessual, instrumental bilimlarni ham egallaydi. Bu esa talabalarda faqat bilimlarni o'zlashtirish emas, balki ularni yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga, shuningdek, faqat faktik emas, balki funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Akademik ko'nikmalar, akademik malakalar va akademik kompetensiyalar o'zaro ierarxik munosabatda bo'ladi (2-rasm).



2-rasm: Akademik ko'nikmalar, malakalar va kompetensiyalarning o'zaro nisbatlari

Zamonaviy oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi mustaqil kasbiy hayotga qadam qo'yishda noaniqlik va belgilab berilmagan vaziyatlarda yo'l topa oladigan, eski kasbiy faoliyat me'yorlari va mazmunlari allaqachon o'z ahamiyatini yo'qotgan, yangi me'yorlar esa hali aniq shakllanmagan sharoitda harakat qila oladigan malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Shu munosabat bilan shaxsda dunyoqarashiy, bilish, kommunikativ va ijodiy sifatlarni shakllantirish orqali oldindan natija beruvchi kompleks ta'limiy natija turi zarur bo'lib, bunday sifatlarni kompetensiyalar yoki kompetentliklar deb ataladi.

Kompetensiya – bu jamiyat tomonidan belgilangan, jamiyat va uning ta'lim sohasi rivojlanishining muayyan bosqichida dolzarb bo'lgan ta'lim oluvchining ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talabdir. Bunda (ijtimoiy va shaxsiy) qadriyat sifatida ko'pincha "o'lik yuk" bo'lib qoladigan bilimlarning o'zi emas, balki ularni real yoki "kvazi-real" vaziyatlarda tez va samarali qo'llay olish qobiliyati (tayyorligi) e'tirof etiladi.

O'z navbatida, kompetentlik – bu shakllangan, barqaror shaxsiy sifatdir^[9]. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuv doirasida akademik malakalarni akademik sohada standart va nostandart vazifalarni mustaqil va muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradigan shaxsiy sifatlarni majmui sifatida talqin qilish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kognitiv, nutqiy va akademik ko'nikmalarni o'rgatish klassik ABA (Applied Behavior Analysis) doirasidagi asosiy qiziqish va tadqiqot obyektlaridan biridir. Discrete Trial Teaching (DTT) – vizual idrok ko'nikmalarini (masalan, ma'lum bir namuna yoki model asosida mozaika yig'ish), taqlid qilish ko'nikmalarini (ham nutqiy, ham nonutqiy), ko'rsatmalarni tushunish, buyumlar va harakatlarni nomlash, grafomotorika (chizish va yozish), arifmetika va o'qish, aniq hamda mavhum tushunchalarni anglash kabi ko'nikmalarni o'rgatishda eng ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi va hokazo. Ko'pincha aynan Discrete Trial Teaching ABA bilan bevosita bog'lanadi, shu sababli butun ABA dasturi DTT asosida quriladi. Natijada shunday holatlar tez-tez yuzaga keladiki, ayrim ko'nikmalarni o'rganishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, boshqa ko'nikmalar rivojlanmay qoladi yoki ularni qo'llash faqat ayrim vaziyatlarda mumkin bo'ladi. Bu esa umumlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi^[5].


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzaxadjayeva Shahzoda, Raxmatullayev Qudrat Shuxrat o'g'li. Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik: muhim omillar va rivojlantirish yo'llari // JMBM. 2025. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/akademik-ko'nikmalar-va-kasbiy-kompetentlik-muhim-omillar-va-rivojlantirish-yo'llari> .
2. Velikaya E. V. Developing students' academic skills in a Russian context // Current Developments in English for Academic, Specific and Occupational Purposes / ed. by M. Krzanowski. Reading: Garnet Publishing, 2008. Ch. 17. P. 267–274.
3. Академические умения / База знаний / Джей энд Эс.
4. Горденко Н. В. Формирование академических компетенций у студентов вузов: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Ставрополь, 2006. 28 с.
5. Обучение речевым, когнитивным и академическим навыкам // Аутизм | АВА-терапия.
6. Ольга Михайловна Демидова, Светлана Ивановна Поздеева. К проблеме ассимиляции термина "academic skills" в российской педагогической науке // Ped. Rev. 2023. №4 (50). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-probleme-assimilyatsii-termina-academic-skills-v-rossiyskoy-pedagogicheskoy-nauke> .
7. Развитие академических навыков: методы и стратегии.
8. Разница между знанием, навыком и способностью // Статья. ВсеТренинги.ру.
9. Хуторской А. В. Образовательные компетенции и методология дидактики. К 90-летию со дня рождения В. В. Краевского // А. В. Хуторской: персональный сайт – Хроника бытия. 22.09.2016. URL: <http://khutorskoy.ru/be/2016/0803>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.